

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK TILIDA MUROJAAT BIRLIKLARI VA ULARNING SOTSIOLINGVISTIK TALQINI

Ro'zimatova Dilnoza

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, katta ilmiy xodim.

e-mail: dilnozaroziyatova@mail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-4313-1011>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada murojaat shakllarining ijtimoiy maqomni ifodalash xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. O'zbek tilida murojaat shakllari so'zlovchining muomala madaniyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Ular orqali so'zlovchi tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalash bilan birga, o'zining madaniyati va saviyasini ham namoyon etadi.

Kalit so'zlar: murojaat birliklari, oddiy hurmat shakli, orttirilgan hurmat shakli, undalma, murojaat shakli.

ФОРМЫ ОБРАЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Рузиматова Дилноза

Институт узбекского языка, литературы и фольклора, старший научный сотрудник.

Аннотация.

В статье рассматриваются особенности форм обращения как средства выражения социального статуса. Подчеркивается, что в узбекском языке формы обращения являются одним из важных факторов, характеризующих культуру общения говорящего. Посредством их употребления говорящий не только выражает своё отношение к собеседнику, но и демонстрирует уровень собственной культуры и коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: единицы обращения, простая форма уважения, усиленная форма уважения, обращение, форма обращения.

FORMS OF ADDRESS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR SOCIOLINGUISTIC INTERPRETATION

Ro'zimatova Dilnoza

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Senior Researcher.

Abstract.

This article examines the features of forms of address as a means of expressing social status. It emphasizes that forms of address in the Uzbek language are an important indicator of a speaker's communicative culture. Through their use, speakers not only express their attitude toward the addressee but also demonstrate their own level of cultural and communicative competence.

Keywords: forms of address, simple form of respect, enhanced form of respect, vocative, form of address.

Kirish. Muloqot jarayonida murojaat muhim ahamiyatga ega. Murojaat shakllari so'zlovchining muomala madaniyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanib, u orqali so'zlovchi tinglovchiga o'z munosabatini ifoda etibgina qolmay, o'zining qay darajada madaniyatli ekanligini va saviyasini ham ko'rsatib beradi. Murojaat orqali tinglovchining qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, yashash joyi, yoshi, jinsi, kasbi va boshqa shu kabi ijtimoiy belgilari haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Murojaatlar shaxs ijtimoiy maqomini ifodalashning to'g'ridan-to'g'ri usuli hisoblanadi.

Murojaat birliklari tilning faqat grammatik yoki nominativ imkoniyatlarini namoyon etuvchi vosita bo'lib qolmay, balki jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi muhim sotsiolingvistik birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Zero, har qanday muloqot jarayonida so'zlovchining tinglovchini qanday nomlashi uning suhbatdoshga nisbatan munosabati, ijtimoiy masofani qanday belgilashi, hurmat yoki yaqinlik darajasini qanday ifodalashi bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan murojaat shakllari kommunikativ jarayondagi ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos "ko'rsatkichi" vazifasini bajaradi.

O'zbek tilidagi murojaat birliklarining shakllanishi va qo'llanishida milliy-madaniy qadriyatlar, an'anaviy muomala me'yorlari, yosh va mavqe munosabatlari, qarindoshlik aloqalari, kasbiy va lavozimiy munosabatlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'zbek nutqiy muloqotida qarindoshlik bildiruvchi birliklarning begona yoki ijtimoiy jihatdan yaqin bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qo'llanishi, ismga hurmat yoki erkalash ma'nosini ifodalovchi shakllarning qo'shilishi, lavozim va unvon asosida murojaat qilish kabi hodisalar murojaat birliklarining milliy-kommunikativ xususiyatlarini belgilaydi. Bunday birliklarning mazmuni ko'pincha lug'aviy ma'nodan tashqari, muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabati va vaziyat bilan belgilanadi.

Murojaat shakllining tanlanishi kommunikativ vaziyatning rasmiy yoki norasmiyligiga ham bevosita bog'liq. Bir xil shaxsga turli vaziyatlarda turlicha murojaat qilinishi mumkin. Masalan, rasmiy muhitda shaxsning lavozimi, unvoni

yoki kasbini bildiruvchi birlikdan foydalanish ma'qul bo'lsa, norasmiy vaziyatda ism, qarindoshlik atamasi yoki erkalash-kichraytirish shakllari ustunlik qilishi mumkin. Demak, murojaat birliklarining kommunikativ qiymati ularning lug'aviy tarkibi bilangina emas, balki nutq vaziyati, kommunikantlarning ijtimoiy maqomi va o'zaro munosabatlari bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi murojaat tizimining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar natijasida ayrim murojaat shakllarining faol qo'llanish doirasi kengaysa yoki toraysa, yangi murojaat birliklari nutq amaliyotiga kirib kelishi mumkin. Shu sababli murojaat birliklarini statik hodisa sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq holda o'zgarib boruvchi lisoniy hodisa sifatida baholash lozim.

Bugungi kunda murojaat birliklarini o'rganishda ularning grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy maqomni ifodalashi, kommunikantlar o'rtasidagi masofani belgilashi, hurmat, samimiylilik, kinoya, ta'na, norozilik kabi pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqarishi masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki bir xil leksik birlik turli nutq vaziyatlarida turlicha ijtimoiy-pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Bu esa murojaat birliklarini sotsiolingvistik va sotsiopragmatik nuqtayi nazardan kompleks tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilidagi murojaat birliklarining ijtimoiy maqom, yosh, jins, kasb, lavozim, tanishlik darajasi, ijtimoiy masofa va kommunikativ vaziyat kabi omillar bilan munosabatini aniqlash mazkur tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biridir. Murojaat shakllarining bunday mezonlar asosida tahlil qilinishi o'zbek nutqiy muloqotida ijtimoiy munosabatlarning til vositasida qanday ifodalanishini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tilshunosligida murojaat birliklari dastlab B. O'rinboyev tomonidan o'rganilgan bo'lib, olimning "Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya" monografiyasida chaqirish, undash, murojaat qilish ma'nosiga ega so'zlar – vokativ kategoriya haqida fikr yuritiladi va vokativ forma gapda undalma hamda vokativ gap bo'lib kelishi ta'kidlanadi. Olim o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib vokativ gaplar haqidagi qarashlarini bayon etadi, fikrlarini misollar bilan dalillaydi.

Olimning fikricha, undalma va vokativ gap bir-biriga teng bo'lmagan hodisalardir. Muallif vokativ gapni so'z-gapning bir turi deb hisoblaydi va uni shunday farqlaydi: "Vokativ gaplar undash xarakteriga ega bo'lib, o'zida turli ma'no nozikliklarini tashuvchi so'z-gaplardir. Bunday gaplarda bosh va asosiy bo'lak nutq qaratilgan shaxs nomidan iborat. Agar bu nom alohida intonatsiya bilan talaffuz etilsa, uning markazida turgan shaxs haqida murakkab tasavvur tug'iladi. U xil fikrlarda so'zlovchi shaxsning istagi, xohishi, g'azabi va boshqa shu kabi xususiyatlari o'z ifodasini topadi" [10: 18].

An'anaviy tilshunoslikda undalma sifatida belgilab kelinayotgan nutq hodisasiga keyingi paytda ijtimoiy ma'no yuklanib, unga murojaat shakli sifatida qaralmoqda [1: 76]. Shu ma'noda tadqiqotchi Z. Akbarova o'z tadqiqotida murojaatning ijtimoiy mohiyatini sotsiolingvistik planda o'rganib chiqadi. Uni ifodalashning sotsiolingvistik va psixolingvistik omillarini, murojaat leksikonining turli belgilariga ko'ra tasnifini keng yoritib beradi, ya'ni murojaatni keng planda verbal va noverbal usullar (imo-ishora, ranglar, turli fonatsion vositalar) bilan ifodilangan turlarini tadqiq qiladi [1: 135].

Murojaat shakllari sotsiopragmatik jihatdan D. Pulatova tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu birliklarning yosh, jins, kasbiy jihatdan turlicha namoyon bo'lishi hamda noverbal vositalar bilan ifodalanishi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, tadqiqotchi murojaatning deytik vazifalari, murojaatda presuppozitsiyaning mavjudligi haqida ma'lumot berib o'tgan [8: 71].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda o'zbek tilidagi murojaat birliklarining sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Murojaat shakllarining ijtimoiy maqom, yosh, kasb, lavozim, jins, kommunikantlarning o'zaro munosabati hamda muloqot vaziyati bilan bog'liq jihatlari tahlil qilindi. Badiiy asarlardan olingan nutqiy misollar asosida murojaat birliklarining nominativ, kommunikativ, ekspressiv va ijtimoiy-indeksial vazifalari ochib berildi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy muloqotdagi murojaat shakllari qiyoslanib, ularning ijtimoiy masofa va hurmat darajasini ifodalash imkoniyatlari aniqlandi.

Natija

Murojaatni sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilishda so'zlovchi va tinglovchining jamiyatdagi o'rni, ularning doimiy ijtimoiy rollari (yosh, ijtimoiy maqom), yashash joyi, ularning simmetrik/asimmetrik rol munosabatlari, suhbatdoshlarning tanishlik darajasi, murojaatning rasmiy yoki norasmiy sharoiti, muloqotchilarning o'zaro munosabatlari tabiati, ta'lim olganlik darajasi va kommunikantlarning nutq madaniyati asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi [2: 17].

Bu omillarga quyidagilar kiradi: suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi, tanish yoki notanishligi, ma'lumoti, muloqot muhiti hamda so'zlovchining nutq madaniyati [2: 17].

Tinglovchiga ko'pincha uning kasbi, lavozimi bilan murojaat qilish tilshunoslikda identifikativ nominatsiya deb ataladi [6: 23]. Bunday holatni N. Y. Shvedova murojaatning asosiy vazifasi ekanligini, bu ko'pincha so'zlovchining subyektiv munosabati va ekspressiv baholashini ifodalash bilan uyg'unlashib ketishini bayon etgan [9: 161]. Bunday murojaat shakllari ilmiy uslubdan tashqari deyarli barcha uslublarda ishlatiladi.

– *Bemoringiz juda tamagir chiqdi, professor**, – dedi Oshno kulib. – Tezroq ruxsat bermasangiz, yana bir balolarni talab qilib qolishi mumkin. Mayli, kasal odamga rad etish o'zi qiyin. Siz biror haftadan keyin telefon qiling,* *professor**, esga solishsin. Xo'sh, yana qanday iltimoslar bor?*

Professor ziyrak edi, izzati bitganini sezdi. Nedir jo'yali bir bahona topib, palatadan chiqdi. (M. M. Do'st. "Lolazor")

Yuqoridagi parchada keltirilgan murojaat shakli murojaat-indeks hisoblanib [7: 129], ushbu gapda murojaatning nominativ, ya'ni nomlash vazifasi amalga oshmoqda. Bu holatda murojaat orqali kishining jamiyatdagi maqomi ko'rsatilgan, uning unvoni bilan atash orqali so'zlovchi, garchi yuqori maqomda bo'lsa ham, tinglovchini hurmat qilishini namoyon etmoqda.

Murojaat shakllarining qo'llanilishi so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy maqomlari teng bo'lmagan holatlarda o'zgarishi mumkin. Kommunikantlarning ijtimoiy maqomlari turli pog'onalarda bo'lgan muloqot jarayoni ko'pincha rasmiy sharoitlarda yuz berib, shunga mos murojaat shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunda yuqori hamda quyi darajadagi tinglovchiga murojaat qilish bir-biridan farqlanadi. Sh. Usmanovning fikricha, "Rasmiy murojaat shakllarida hurmat belgisi kuchli bo'lib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasb-kori, unvoni va yoshiga ko'ra quyidagicha darajalanish kuzatiladi: 1. Eng oliy darajadagi hurmat shakli. 2. Oliy darajadagi hurmat shakli. 3. Oddiy hurmat shakli. 4. O'rttirilgan hurmat shakli" [10: 18].

Eng oliy darajadagi hurmat shakllari, asosan, hukumat rahbarlariga qilingan murojaat hisoblanadi. Ijtimoiy tuzum, siyosiy vaziyat o'zgarishi bilan rasmiy munosabatlarda ham murojaat shakllarining o'zgarishi kuzatiladi. Bunda, yuqorida ta'kidlanganidek, murojaat-indekslarning o'zgarishi kuzatiladi. O'zbek muloqotida hukumat rahbarlariga nisbatan turli davrlarda turlicha murojaat shakllari qo'llanib kelingan. Bular orasida *oqsoqol*, lavozimidan oldin *o'rtoq* so'zining qo'shib ishlatilishini, *ota*, keyingi yillarda esa *janob Prezident*, *hurmatli Prezidentimiz* singari shakllar qo'llanilganini kuzatamiz.

Ayrim asarlardan davlat boshliqlariga nisbatan *ota* murojaatining qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Bunday murojaat shakliga ko'pincha xalq bilan uchrashuvlarda, rasmiy bo'lmagan sharoitlarda duch kelish mumkin:

"Azizxon indamay boshini egadi. Past ovoz bilan dedi:

– Gunohimdan o'ting. Bir qoshiq qonimdan o'ting, ota.* O'sha siz aytgan bola menman.*

Hozirgi kunda eng oliy darajadagi hurmat shakli sifatida *"prezident janobi oliylari"*, *"muhtaram prezident janobi oliylari"* singari murojaat birliklari rasmiy va publitsistik uslub matnlarida ko'zga tashlanadi.

Oliy darajadagi murojaat shakllari yuqori mansab egalariga nisbatan qo'llaniladi hamda ko'pincha *hurmatli*, *muhtaram*, *janob*, *xonim* so'zlari bilan birga keladi. Shuningdek, yuqori darajadagi rahbarlarga nisbatan *hurmatli vazir*, elchilarga nisbatan *elchi janoblari* kabi murojaatlar qo'llanilishining guvohi bo'lish mumkin.

Oddiy hurmat shakli eng keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha hurmatli + kasb, unvon so'zlari yordamida yasaladi. *Hurmatli rais*, *hurmatli sudya*, *hurmatli hakam* singari. Ushbu murojaatlar rasmiy jarayonlarda, turli yig'in hamda majlislarda ishlatilgan.

Rasmiy munosabatlarda nutq vaziyatiga, tinglovchining ijtimoiy maqomi hamda ayni damda bajarayotgan roliga qarab murojaat shakllarining mosini qo'llash kerak. Noto'g'ri murojaat shaklini qo'llash noqulaylikni keltirib chiqaradi:

*– Opajon**, bir marta kechiring!*

– Men sizga "opajon" emasman!

– O'zingiz "uka" deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

– Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun – grajdan sudyaman. (E. A'zam. "Anoyining jaydari olmasi")

Bunda "opajon" murojaat shakli rasmiy vaziyat uchun mos bo'lmagani sababli *"opajon"* deb atalayotgan shaxsda e'tiroz uyg'otgan.

So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofa va rasmiyatchilik darajasi ortib borsa, murojaatda qarindoshlik bildiruvchi so'zlarning kelishi, erkalash bildiruvchi qo'shimchalarning murojaat tarkibida kelish darajasi kamayib boradi va muloqotda rasmiylikka o'tiladi. Bu ko'proq maqomi yuqori bo'lgan, ba'zan esa quyi maqomdagi insonning tashabbusi tufayli yuz beradi.

*– Qo'ying, Nazarboy**, – dedi Oshno uni ismi bilan atab, – bolalikdan beri sinashta bo'lsak... Biz yana kimgayam sig'inamiz.*

Yaxshiboyev Oshno rasmiyatni qo'yib ismi bilan ataganiga ajablanmadi, atashi shart edi...

*– Jonimdan bezor bo'ldim, oqsoqol**, – dedi. – Bir xira pashsha hafta tural tinchlik bermaydi.* (M. M. Do'st. "Lolazor")

Parchada dastlab yuqori maqomdagi shaxs quyi maqomdagi do'stiga ismi bilan murojaat qiladi va rasmiy vaziyat bo'lsa ham, yaqin insoni, bolalikdagi do'sti ekanligini ushbu murojaat orqali ifodalamoqchi bo'ladi. Lekin quyi maqomdagi do'stining ayni paytdagi roliga mos xatti-harakat qilmayotganligi tufayli o'z maqomini eslatish maqsadida suhbatdoshiga rasmiy murojaat qilishni ma'qul topadi.

Yuqoridagi parchada quyi maqom egasi o'z do'sti bo'lgan yuqori martaba egasiga uning mavqeyini hurmat qilgan holda boshqalar qatori *"oqsoqol"* murojaat shaklini qo'llagan. Lekin yuqori martabaga ega do'sti esa suhbat jarayonida samimiylilikni ta'minlash maqsadida unga ismi bilan murojaat qiladi. Lekin suhbat jarayonining o'zgarishi yuqori maqomdagi shaxsning birdan rasmiyatchilikka o'tishiga sabab bo'lgan. Murojaat nominatsiyasining o'zgarishi so'zlovchining subyektiv munosabatining ham o'zgarishiga olib kelgan.

Hamkasb murojaat shakli ijtimoiy maqomlari teng bo'lgan inson tomonidan sherigiga nisbatan qo'llanadi. O'zbek tilida *ham-* qo'shimchasi teng mavqedagi shaxs otlarini hosil qilishda ishtirok etadi.

Kelib-kelib xuddi shu odamning apellyatsiya komissiyasiga rais qilib tayinlanganini eshitganda Domlaning qattiq g'ashi kelgan edi.

– Nima gunoh qildik, hamkasaba!* – dedi u ichkari kirishi bilan yarim hazil-yarim piching qilib.*

– Bir abituriyentdan qaytadan imtihon olishga to'g'ri keladi. – Qilich Valiyev Sirojiddinga imo qildi. – Biletlar bormi? (O'. Hoshimov. "Nur borki, soya bor")

Keltirilgan matnda *hamkasaba* murojaati o'zidan jamiyatdagi lavozimi yuqori, lekin yosh jihatdan kichik tinglovchiga nisbatan qo'llanyapti. Rasmiy murojaat qilishga esa so'zlovchidagi g'urur yo'l qo'ymaydi, chunki tinglovchi bir paytlar uning qo'l ostidagi oddiy xodim bo'lgan. Murojaatda ta'na, kinoya, suhbatdoshini kamsitish alomatlarini ko'zga tashlanadi.

Ma'lum sohaning o'ziga xos etiket qoidalari suhbatdoshlarning bir-biriga qilgan murojaatida, ayrim leksik birliklarda hamda faqat ushbu soha xodimlarida uchraydigan noverbal harakatda ham aks etgan. V. I. Karasik bu kabi murojaatlarni maxsus murojaatlar deb atagan [5: 196].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, murojaatlar yakka bir shaxsga yoki umumga nisbatan qo'llanishiga ko'ra ham farqlanadi. Turli yig'inlar, majlislarda nutq *hurmatli do'stlar, qadrlil hamkasblar, muhtaram majlis qatnashchilari, hurmatli senat a'zolari* kabi ommaga qilingan murojaatlar bilan boshlanadi. Ommaga qilingan murojaatlarda har bir toifa vakillari alohida tilga olinishi mumkin, masalan, *hurmatli professorlar, talabalar, magistrilar, doktorantlar* singari.

Suhbat jarayonida tinglovchining ijtimoiy maqomi va ayni damda bajarayotgan ijtimoiy roliga muvofiq murojaat shakllarini qo'llash kerak. Murojaat qilish orqali suhbat boshlanadi, suhbatning qanday kechishi ko'pincha unga bog'liq bo'lib qoladi.

Muhokama

Murojaat birliklarining sotsiolingvistik tabiatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning kommunikativ qiymati alohida olingan leksik birlikning ma'nosi bilangina belgilanmaydi. Murojaatning real mazmuni nutq jarayonida kommunikantrlarning o'zaro munosabati, kommunikativ maqsadi va vaziyatning xususiyatlari bilan shakllanadi. Shu sababli bir xil murojaat shakli turli vaziyatlarda mutlaqo boshqa ijtimoiy-pragmatik mazmunni yuzaga chiqarishi mumkin. Bu jihat murojaat birliklarini tayyor va o'zgarimas nominativ vositalar emas, balki kontekst ta'sirida mazmuni yangilanib boradigan kommunikativ birliklar sifatida baholash imkonini beradi.

Murojaat tanlovi, avvalo, so'zlovchining suhbatdoshga nisbatan qanday kommunikativ pozitsiyani egallayotganini ko'rsatadi. Masalan, shaxsning ismi bilan murojaat qilish ayrim vaziyatlarda oddiy identifikatsiya vositasi bo'lsa, boshqa holatda yaqinlik, tenglik yoki samimiylilikni ifodalashi mumkin. Aksincha, shaxsning lavozimi yoki maqomini ta'kidlovchi murojaat shakli kommunikativ masofani saqlash, rasmiylikni kuchaytirish yoki ijtimoiy ierarxiyani qayd etish vazifasini bajaradi. Demak, murojaat shaklining tanlanishi so'zlovchining kommunikativ strategiyasini belgilashda faol ishtirok etadi.

Murojaat birliklarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ular muloqot jarayonidagi ijtimoiy masofani boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Kommunikantlar o'rtasidagi masofa qisqargan sari murojaatda norasmiylik va emotsional yaqinlikni ifodalovchi vositalarning faollashishi kuzatiladi. Ijtimoiy masofa kuchayganda esa neytral yoki rasmiy shakllarga ehtiyoj ortadi. Bunday o'zgarish muloqotning boshlanishi, rivojlanishi yoki keskinlashishi jarayonida ham yuz berishi mumkin. Shuning uchun murojaat birliklarini faqat shaxsni chaqirish yoki nomlash vositasi sifatida chegaralash ularning kommunikativ imkoniyatlarini to'liq ochib bermaydi.

Tahlil natijalari murojaat birliklarida ijtimoiy va emotsional baholashning o'zaro qorishib ketishi mumkinligini ham ko'rsatadi. So'zlovchi ayrim hollarda suhbatdoshning mavqeyini tan olgan holda murojaat qiladi, ayrim holatlarda esa ayni murojaat shaklidan kinoya, norozilik yoki yashirin baho berish uchun foydalanadi. Bunda murojaatning tashqi shakli ijobiy yoki neytral ko'rinsa-da, uning haqiqiy kommunikativ mazmuni intonatsiya, vaziyat va oldingi nutq bilan belgilanadi. Shu jihatdan murojaat birliklari verbal muloqotdagi yashirin ma'nolarni aniqlash uchun muhim lingvistik material hisoblanadi.

Zamonaviy kommunikativ muhitda murojaat tizimining o'zgaruvchanligi ham alohida e'tiborga loyiq. Ijtimoiy munosabatlarning demokratlashuvi, kasbiy va institutsional munosabatlarning yangilanishi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining kengayishi natijasida ayrim murojaat shakllarining qo'llanish doirasi o'zgarib bormoqda. Natijada an'anaviy murojaat birliklari bilan yangi kommunikativ ehtiyojlar asosida shakllanayotgan birliklar yonma-yon mavjud bo'lmoqda. Bu jarayon murojaat tizimini tilning jamiyatdagi o'zgarishlarni tez aks ettiruvchi qatlamlaridan biri sifatida ko'rish imkonini beradi.

Shuningdek, murojaat birliklarining ijtimoiy funksiyasini o'rganishda ularni faqat so'zlovchi va tinglovchi munosabati doirasida emas, balki muayyan kommunikativ hamjamiyatning madaniy me'yorlari bilan bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki bir muloqot muhitida hurmat belgisi sifatida qabul qilinadigan murojaat boshqa muhitda ortiqcha rasmiylik yoki masofa belgisi sifatida baholanishi mumkin. Demak, murojaatning maqbulligi uning shakliga emas, balki shakl va vaziyat o'rtasidagi mutanosiblikka bog'liq.

XULOSA

O'zbek tilidagi murojaat birliklarining sotsiolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish asosida ularni shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishda ishtirok etuvchi faol kommunikativ vosita sifatida baholash mumkin. Ular orqali nafaqat adresat aniqlanadi, balki muloqotning ijtimoiy yo'nalishi, kommunikativ masofasi va munosabatning xarakteri ham belgilanadi. Murojaat shaklining tanlanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, uning mazmuni nutq vaziyati, kommunikantrlarning o'zaro munosabati va so'zlovchining kommunikativ niyati bilan birgalikda yuzaga keladi. Shu sababli murojaat birliklarini o'rganishda ularning lug'aviy yoki grammatik xususiyatlaridan tashqari, ijtimoiy indekslilik va pragmatik imkoniyatlari ham asosiy tadqiqot mezonlaridan biri bo'lishi lozim. Tadqiqot natijasida murojaat birliklarining ijtimoiy munosabatlarni shunchaki aks ettiribgina qolmay, ayrim hollarda ularni faol ravishda boshqarishi va o'zgartirishi mumkinligi aniqlandi. So'zlovchi murojaat shaklini almashtirish orqali suhbatdosh bilan yaqinlashishi, masofani oshirishi, rasmiylikni kuchaytirishi yoki mavjud ijtimoiy munosabatga munosabat bildirishi mumkin. Shu ma'noda murojaat birliklari nutqiy strategiyani amalga oshiruvchi muhim vositalardan biridir. Murojaat tizimining o'zgaruvchanligi esa til va jamiyat munosabatining dinamik xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Ijtimoiy tuzilma,

kommunikativ muhit va madaniy qadriyatlardagi o'zgarishlar murojaat birliklarining shakli, qo'llanish chastotasi va funksional yukiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'zbek tilidagi murojaat birliklarini kelgusida diaxronik, gender-sotsiolingvistik, korpus-lingvistik va sotsiopragmatik yo'nalishlarda kompleks tadqiq etish muhim ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin. Murojaat birliklari o'zbek tilining milliy-kommunikativ xususiyatlarini namoyon etuvchi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi va nutq jarayonida ularni boshqarishga xizmat qiluvchi ko'p funksiyali lisoniy vositalardir. Ularning mazmunini to'liq anglash uchun "murojaat shakli – kommunikativ vaziyat – ijtimoiy munosabat – kommunikativ niyat" birligi asosida yondashish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarova Z. *O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fan. nomz. ... diss.* – Toshkent, 2007. – 135 b. <https://api.ziyouet.uz/uploads/books/473012/5af42133340bf.PDF>
2. Айсакова Е. А. *Социальная и социокультурная дифференциация обращений в современном русском языке: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01.* – Москва, 2008. – 200 с. ([Поиск РСЛ](https://search.rsl.ru/ru/record/01004156550)) <https://search.rsl.ru/ru/record/01004156550>
3. Балакай А. А. *Этикетные обращения: функционально-семантический и лексикографический аспекты: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01.* – Новосибирск, 2005. – 241 с. ([Диссеркат](https://www.dissercat.com/content/etiketnye-obrashcheniya-funktsionalno-semanticheskii-i-leksikograficheskii-aspekty)) <https://www.dissercat.com/content/etiketnye-obrashcheniya-funktsionalno-semanticheskii-i-leksikograficheskii-aspekty>
4. Гольдин В. Е. *Обращение: теоретические проблемы* / под ред. Л. И. Баранниковой. – Саратов: Изд-во Саратовского университета, 1987. – 129 с. https://vss.nlr.ru/archive_catalog.php?p=3&rid=5131
5. Карасик В. И. *Язык социального статуса.* – Москва: Институт языкознания АН СССР; Волгоградский педагогический институт, 1991. – 495 с. ([Studmed](https://www.studmed.ru/view/karasik-vi-yazyk-socialnogo-statusa_6edc8a91cd4.html)) https://www.studmed.ru/view/karasik-vi-yazyk-socialnogo-statusa_6edc8a91cd4.html
6. Ле Ван Нянь. *Виды характеристики адресата в формах русского обращения: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01.* – Воронеж, 1989. – 24 с. (files.knihi.com) <https://search.rsl.ru/ru/record/01008017641>
7. Pulatova D. D. *O'zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmatik tadqiqi.* – Toshkent, 2024. <https://library.samdpi.uz/ebooks/view?id=22952>
8. Usmonova Sh., Kalanova D. *O'zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari // Lingvist: ilmiy maqolalar to'plami.* – III. – Toshkent, 2012. – В. 162–166. ([Support Science](https://supportscience.uz/index.php/oje/article/view/2178)) <https://supportscience.uz/index.php/oje/article/view/2178>
9. *Русская грамматика: в 2 т.* / гл. ред. Н. Ю. Шведова. – Москва: Наука, 1980. – Т. 2: Синтаксис. – 709 с. – С. 161. ([Поиск РСЛ](https://search.rsl.ru/ru/record/01001024167)) <https://search.rsl.ru/ru/record/01001024167>
10. O'rinboyev B. *Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya.* – Toshkent: Fan, 1972. – 144 b. ([QarshiDU](https://qarshidu.uz/pdf/Ономастика%202025%204-сон%20янги%208.01.2026.pdf)) <https://qarshidu.uz/pdf/Ономастика%202025%204-сон%20янги%208.01.2026.pdf>